

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 153 (1752), 2026-yil 30-iyul, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI “KELAJAK O‘YINLARI”NING OCHILISH MAROSIMIDA ISHTIROK ETDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 29-iyul kuni amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari Ostona shahrida “Kelajak o‘yinlari” uchinchi xalqaro musobaqasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi.

“Baris Arena” muz saroyida o‘tkazilgan tadbirda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi

Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va boshqa xorijiy mehmonlar ham qatnashdi.

Marosim ishtirokchilariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin videomurojaat yo‘lladi.

Tadbirming tantanali qismida fjitall-sportning mazmun-mohiyati, ya‘ni raqamli bellashuvlarni an‘anaviy sport turlari hamda jismoniy faollik bilan birlashtiruvchi yo‘nalishlari haqida ma‘lumot berildi. Musobaqaning g‘oyasi yoshlarni an‘anaviy sport bilan shug‘ullanishga da‘vat etishdir.

Davlatimiz rahbari xalqaro tumir ishtirokchilarini qutladi.

Shu kuni sport va texnologiyalar vazirlari, diplomatik missiyalar rahbarlari hamda boshqa yuqori martabali vakillar ishtirokida fjitall-sport bo‘yicha sammit ham bo‘lib o‘tdi.

Birinchi “Kelajak o‘yinlari” 2024-yili Qozon shahrida o‘tkazilgan. Uning ochilish marosimida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etgan edi. Ikkinchi turnir esa 2025-yilda Abu-Dabi shahrida bo‘lib o‘tdi.

Bu galgi musobaqalarda O‘zbekiston vakillari fjitall-futbol, lazertag va raqs yo‘nalishlari bo‘yicha bellashadi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘iston Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN QIRG‘IZISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning taklifiga binoan 30-iyul – 1-avgust kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Oliy darajadagi muzokaralarda O‘zbekiston — Qirg‘iziston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, o‘zaro savdo hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hamda madaniy-gumanitar almashinuvlarni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashadilar.

Sammit yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan ikki tomonlama hujjatlar to‘plamini imzolash rejalashtirilgan.

Tashrif dasturiga muvofiq, Prezidentimiz Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining norasmiy Maslaha uchrashuvi va boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

O‘ZA

SUN‘IY INTELLEKT FALSAFASI

Telefonimizdagi ovoqli yordamchi biz nima so‘raganimizni “tushunadi”, qidiruv tizimi fikrimizni oldindan “payqaydi”, sun‘iy intellekt dasturlari esa she‘r yozib, rasm chizadi, biz bilan suhbat quradi. Ammo bu “aqlli” mashinalar ortida insoniyatni azaldan qiynab kelgan savol turibdi: aql, ong va tushunish aslida nima? Mashina haqiqatan ham o‘ylay oladimi yoki shunday ko‘rinadimi? Sun‘iy intellekt falsafasi ana shu savollarga javob izlaydi.

Inson azaldan o‘ziga o‘xshash “aqlli” mavjudot yaratishni orzu qilib kelgan. Qadimgi afsonalardagi jonlantirilgan haykallar, o‘rta asrlardagi mexanik qo‘g‘irchoqlar — bularning barchasi bir intilishning turli ko‘rinishlari edi: jonsiz materiyaga aql va hayot baxsh etish.

XXI asrda bu orzu mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Endi biz afsona yoki ilmiy fantastika emas, balki har kungi hayotimizga kirib kelgan real texnologiya haqida so‘z yuritaymiz. Sun‘iy intellekt tibbiyotda tashxis ko‘yadi, avtomobilni boshqaradi, matnni tarjima qiladi, musiqa bastalaydi. Uning qobiliyatlari oshgan sari bir savol tobora keskinroq yangramoqda: chindan ham “o‘ylaydigan” texnika yaratildimi yoki u shunchaki o‘ylashga ustalik bilan taqldil qiladigan murakkab hisoblagichmi?

Mana shu savolni o‘rtaga tashlagan zahoti biz texnika olamidani falsafa olamiga qadam qo‘yamiz. Sun‘iy intellekt falsafasi texnik fan emas, balki insonning eng qadimiy savollarini — “Aql nima? Ong nima? Insonni inson qiladigan xususiyat nima?” — butunlay yangi sharoitda qayta ko‘rib chiqadigan intellektual sohadir.

Davomi 5-betda

Duyshenqul CHOTONOV:

“QIRG‘IZISTON VA O‘ZBEKISTON O‘ZARO HAMKORLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING YANGI MODELINI SHAKLLANTIRMOQDA”

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg‘izistonga davlat tashrifi arafasida Qirg‘izistonning O‘zbekistondagi elchisi Duyshenqul Chotonov “Dunyo” AA muxbiriga ekslyuziv intervyu berdi.

— O‘zbekiston Prezidentining davlat tashrifi ikki tomonlama kun tartibidagi muhim voqealardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Sizningcha, qanday yangi kelishuvlar O‘zbekiston — Qirg‘iziston keng qamrovli strategik sherikligining yanada rivojlanishini belgilab beradi?

— Shubhasiz, O‘zbekiston Prezidenti, muhtaram Shavkat Mirziyoyevning Qirg‘izistonga bo‘ljak davlat tashrifi

haqiqatan ham tarixiy ahamiyatga ega. Ishonchimiz komilki, bu muhim voqea Qirg‘iziston — O‘zbekiston munosabatlarida yangi bosqichni ochib beradi hamda ishonch, strategik yaqinlik va umumiy manfaatlariga asoslangan hamkorlikning yangi arxitekturasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Davomi 2-betda

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

MAHALLA FENOMENI: TARIX, ISLOHOT va YUKSALISH MUTANOSIBLIGI

(Birinchi maqola)

Mahalla haqida gap ketganda, ko‘pincha balandparvoz ta‘riflar aytiladi. Aslida esa bu so‘zning ma‘nosi juda oddiy bir manzarada ko‘rinadi: eshigidan chiqqanida keksa kishiga salom berib o‘tadigan qo‘shni, kechalari yo‘llarni yoritib turgan chiroq, ishsiz ayolga kasb o‘rgatayotgan o‘quv markazi, og‘ir ahvoldagi oila holidan xabar olayotgan ijtimoiy xodim. Mahalla haqidagi har qanday katta fikr oxir-oqibat shu kichik manzaralar bilan o‘lchanadi.

Barchasi ostonadan boshlanadi

2026-yilning Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili deb e‘lon qilinishidagi eng katta ma‘no ham shunda. Bu nom mahalla haqida yana bir bor gapirish uchun emas, islohotlarning natijasini inson hayotida ko‘rish uchun berilgan. Chunki davlat qarorlari markazda qabul qilinsa-da, quvvati quyi bo‘g‘inda — mahallada sinaladi. Qonunning adolati, xizmatning qulayligi, ijtimoiy yordamning manzilliligi, tadbirkorlikka yaratilgan imkoniyat — barchasi xonadon ostonasida o‘z bahosini oladi.

Ilgari keksa nafaqaxo‘rlar imkoniyati cheklanganini tasdiqlash uchun idorama-idora yurar, bir hujjatni yig‘ishga oylar ketardi. Endi mahallaga ijtimoiy xodim biriktirilgani tufayli kerakli ko‘mak uning



Nosir HAYDAROV olgan surat.

oldiga kelmoqda. Bu yerda gap bir kishiga berilgan nafaqa yoki bir martalik yordam haqida emas. Gap davlatning insonga munosabati o‘zgargani, fuqaro idora eshigida sarson bo‘lmay, xizmat uning yashash joyiga yaqinlashgani haqida.

Shu nuqtadan qaraganda, mahalla islohoti obodonchilik dasturidan ancha keng. U davlat boshqaruvini insonga yaqinlashtirish, iqtisodiy

imkoniyatni hududga olib kirish, oila va jamoa barqarorligini mustahkamlash, jamoatchilikni qaror qabul qilishga jalb etish jarayonidir. Shu jarayonning ko‘lamini, mazmunini va hali yechim kutayotgan masalalari haqida fikr yuritishni maqsad qildik.

Davomi 3-betda

biznes vakillari munosib faoliyat ko‘rsatayotgani, ularning 2 ming nafarga yaqini Vatanimizning yuksak unvonlari, orden va medallari bilan taqdirlangani mamlakatimizda hukm surayotgan ijtimoiy tenglik, adolat va inklyuzivlikning amaliy namunasi desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Muhtaram yurtdoshlar! Bepoyon Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining qadimdan musharak maqsadlar asosida yashab, mehnat qilib, taraqqiyot borasida qanday ulkan natijalarga erishganlari, bunday ezu an‘analari keyingi yillarda yanada kuchayib, yangi bosqichga ko‘tarilayotganini barchamiz ko‘rib turibmiz.

Biz qo‘shni davlatlar bilan do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarimizni mustahkamlab, strategik sheriklik va ittifoqchilikni yanada rivojlantirmoqdamiz.

Xalqlarimiz o‘rtasida erkin bordi-keldilar, iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar kengayib, yangicha ma‘no-mazmun bilan boyib borayotgani, bunday hayotbaxsh jarayonlarda O‘zbekistonning alohida o‘mi va hissasi borligi ayniqsa diqqatga sazovor.

So‘nggi yillarda sizlar bilan, el-yurtimiz bilan birgalikda xalqlar do‘stligini mustahkamlash yo‘lida erishgan yutuqlarimizni yanada boyitish biz uchun bundan buyon ham bosh vazifa bo‘lib qoladi.

Barchamiz yaxshi bilamiz, turli millat vakillarini o‘zaro yaqinlashtirishda san‘at va madaniyat hamisha ma‘naviy ko‘priklar vazifasini bajarib kelgan. Har qaysi millatning betakror san‘atini ayni shu asosda rivojlantirish bu — umumbashariy birlik va ahillikka olib boradigan eng ishonchli yo‘ldir.

Shu maqsadda mamlakatimizda turli millat va elat vakillaridan tarkib topadigan professional “Do‘stlik” ansamblini tashkil etishni reja qilganmiz va buning uchun barcha sharoitlarni yaratib beramiz. O‘ylaymanki, mazkur yangi ijodiy jamoa ana shunday qulay muhitda shakllanib va rivojlanib, mamlakatimiz madaniy hayotida albatta munosib o‘rin egallaydi.

Qadrlar do‘stlar! Hech qachon unutmaylik, xalqlar do‘stligi bu — muqaddas insoniy qadriyat, tinch, erkin va farovon hayot garovidir. Bugungi kunda barchamiz o‘zimiz, oilamiz, farzandlarimizning baxti, jonajon O‘zbekistonimizning taqdiri va kelajagi uchun yagona xalq, yagona jamiyat bo‘lib harakat qilayotgan ekanmiz, yuksak maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Siz, azizlarni, butun xalqimizni 30-iyul — Xalqlar do‘stligi kuni bilan yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, tinchlik-xotirjamlik, oilaviy baxt, mamlakatimiz ravnaqi yo‘lidagi olijanob faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.

O‘zbekistonimiz doimo tinch va barqaror bo‘lsin, birgalikdagi fidokorona mehnatimiz bilan yanada gullab-yashnasin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

MAHALLA FENOMENI: TARIX, ISLOHOT va YUKSALISH MUTANOSIBLIGI



Naim OBLOMURODOV,
tarix fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Qadimiy jamoadan zamonaviy institutgacha

Mahalla — xalqimiz hayotiga kecha kirib kelgan tushuncha emas. Narshaxiy Buxoro guzarlari va jamoalari haqida yozar ekan, odamlarning kasb-kori, yashash joyi va o‘zaro aloqalari muayyan hududiy birliklar atrofida shakllanganini qayd etadi. Alisher Navoiy mahallani “shahar ichra shaharcha” deb atagani bejiz emas: mahalla shaharning bir qismi bo‘lsa-da, unda o‘zining ma’naviy muhiti, qo‘shnichilik tartibi va jamoaviy xotirasi bor.

Ariq tozalash, hashar, to‘y-ma‘rakani muvofiqlashtirish, yetim-yesirdan xabar olish, nizoni murosas bilan hal etish kabi ishlar mahallada davlat idorasidan oldin paydo bo‘lgan ijtimoiy mas’uliyat shakllidir. Mahalla ana shu tajriba tufayli xalqning kundalik hayotiga chuqur singdi. Shu bilan birga, uning tarixini bir tekis va faqat ijobiy jarayon sifatida tasvirlash to‘g‘ri emas. Turli davrlarda mahalla ham hamjihatlik makoni, ham ijtimoiy nazorat vositasi bo‘lib kelgan. Demak, bugungi islohotlar an’anani ko‘r-ko‘rona qaytarish emas, uni huquq, inson qadri va zamonaviy xizmatlar bilan boyitishdir.

Mustaqillikdan keyin mahalla fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti sifatida huquqiy maqom oldi. Konstitutsiya uni davlat hokimiyati tizimiga kirmaydigan, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil hal qiladigan tuzilma sifatida belgilaydi. Shu qisqa tarixiy ma’lumot bugungi asosiy xulosaga olib keladi: mahalla o‘tmishdan meros qolgan ramz emas, yangi vazifalarni bajarayotgan tirik institutdir.

Farovonlikning haqiqiy makoni

Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular yuqoridan berilgan vazifalar majmuasi bo‘lib qolmay, hududdagi aniq muammolar bilan bog‘lanmoqda. Ilgari aholi uchun eng og‘ir masalalar — ishsizlik, ichimlik suv, yo‘l, gaz, elektr, uy-joy, ijtimoiy nafaqa bir-biridan uzilgan idoralar ishi sifatida ko‘rilardi. Endi ularni bir xonadon, bir ko‘cha va bir mahalla doirasida ko‘rish talabi kuchaydi.

Bu yondashuvning siyosiy mazmuni bor. Davlat “men xizmat ko‘rsatayman” degan umumiy bayonot bilan cheklanmay, qaysi hududda qaysi muammo borligini bilishi va natija uchun mas’ul bo‘lishi kerak. Mahalla esa muammoni yuqoriga uzatib qo‘yuvchi manzil emas, yechimni shakllantirishda ishtirok etuvchi subyektaga aylanmoqda. Shuning uchun mahallabay ishlashni navbatdagi tashkiliy kampaniya emas, boshqaruv madaniyatidagi o‘zgarish deb baholash kerak.

2021-yildan boshlab mahallabay ishlash tartibida idoralarning hududiy hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Yo‘lni ta’mirlash bilan bandlikni, ijtimoiy yordam bilan kasbga o‘qitishni, obodonchilik bilan ekologik tarbiyani bir dasturda ko‘rish imkoni paydo bo‘ldi. Bir qarashda bu oddiy muvofiqlashtirishdek tuyuladi. Aslida u davlat organlarining ish usulini o‘zgartiradi: har bir idora hisobotini emas, mahallaning umumiy natijasini o‘ylashi lozim.

Bu jarayonda jamoatchilikning roli ham ortib bormoqda. Qaysi ko‘cha ta’mirlanadi, qaysi obyekt birinchi navbatda quriladi, yoshlar uchun qanday kurs ochiladi, xotin-qizlarning qaysi tashabbusi qo‘llab-quvvatlanadi — bunday qarorlar aholi ishtirokisiz barqaror bo‘lmaydi. Mahalla islohotining birinchi talabi budir: odamlar o‘z hududi taqdiriga daxldorligini his qilsin.

Raqamlar maqsadga aylanmasligi kerak

“Mahallabay” so‘zi so‘nggi yillarda rasmiy hujjatlardan kundalik boshqaruv tiliga kirdi.

Ammo uning mazmuni faqat xonadonma-xonadon ma’lumot to‘plashdan iborat emas. U hududdagi inson, oila, tadbirkor va jamoat instituti bilan bir vaqtning o‘zida ishlashni anglatadi. Bu usulning samarasi xodimlar soni yoki o‘tkazilgan uchrashuvlar bilan emas, muammoning qay darajada bartaraf etilgani bilan baholanadi.

Masalan, ishsiz yoshga “ish topish kerak” deb maslahat berish oson. Lekin uning qaysi kasbga moyilligi, oilaviy sharoiti, yo‘l haqi, o‘qish muddati va bozordagi talab o‘rganilmasa, bu maslahat qog‘ozda qoladi. Mahallabay yondashuv shu savollarni bir tizimga yig‘adi: kasbga o‘qitish, asbob-uskuna, mikrokredit, ish beruvchi bilan bog‘lash va natijani kuzatish. Hokim yordamchisining vazifasi ham shu nuqtada o‘zgaradi — u ma’lumot beruvchi emas, mahalladagi iqtisodiy imkoniyatni harakatga keltiruvchi mutaxassis bo‘lishi kerak.

Biroq mahallabay ishlashni qo‘shimcha hisobotlar bilan og‘irlashtirib qo‘yish xavfi bor. Agar har bir uchrashuv, har bir xonadon va har bir telefon qo‘ng‘irog‘i alohida jadvalga aylansa, mas’ul xodim insonning muammosiga emas, ko‘rsatkichga xizmat qila boshlaydi. Shu bois raqamlar qaror qabul qilish vositasi bo‘lishi, maqsadning o‘ziga aylanmasligi kerak.

Mahallabay ishlashda uchta talab muhim. Birinchisi — ma’lumotning haqqoniyligi. Ikkinchisi — idoralar o‘rtasida vazifaning aniq taqsimlanishi. Uchinchisi — fuqaroning muammosi yopilganidan keyin uning holidan yana xabar olish. Yo‘l qurildi, kredit berildi, nafaqa tayinlandi degan ma’lumotning o‘zi yetarli emas. Yo‘l qachongacha xizmat qiladi? Kredit olgan oila daromadini oshirdimi? Nafaqa oluvchi o‘zini himoyalangan his qilyaptimi? Islohotning haqiqiy savoli mana shu.

Boshqaruv madaniyati

Bugungi mahalla tizimida rais, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq vakilidan iborat hamkorlik mexanizmi shakllandi. Bu tarkibni oddiy ma’muriy jamoa deb tushunish kamlik qiladi. Uning oldiga turli soha muammolarini bir mahalla manfaatida birlashtirish vazifasi qo‘yilgan.



Mahalla raisi aholi ishonchini, hokim yordamchisi iqtisodiy imkoniyatni, yoshlar yetakchisi avlodning intilishini, xotin-qizlar faoli oila va mehnat masalalarini, profilaktika inspektori xavfsizlikni, ijtimoiy xodim ehtiyojmand insonning holatini, soliq vakili esa iqtisodiy intizomni ko‘radi. Agar ular bir-biridan uzilgan holda ishlasa, “mahalla yetilligi” faqat nomiga qoladi. Agar ma’lumot almasha, qarorni birgalikda muhokama qilsa va har kim o‘z vazifasi uchun javob bersa, u mahalliy boshqaruvning amaliy markaziga aylanadi.

Bu tizimda kollegiallik muhim. Bir kishining fikri butun oila taqdirini hal qilmasligi kerak. Yordam berish, kredit tavsiya qilish, profilaktika chora ko‘rish yoki nizoli vaziyatga aralashishda aniq mezonlar bo‘lishi shart. Aks holda jamoaviy qaror degan niqob ostida subyektiv yondashuv paydo bo‘lishi mumkin.

“Mahalla yetilligi”ning kuchini faqat vakolatlar ko‘payishi bilan emas, uning muloqot madaniyati bilan o‘lchaymiz. Ularning yig‘ilishi rasmiy bayonnoma uchun emas, muammoning sababini tushunish uchun o‘tishi kerak. Qaysi oila nega kambag‘al? Qaysi yosh nega ishsiz?

(Birinchi maqola)



Nega bir mahallada oilaviy nizolar ko‘paygan? Nima uchun ba’zi ko‘chalarda obodlik ishlari uzoq saqlanmaydi? Ana shu savollarga birgalikda javob izlangandagina yangi boshqaruv madaniyati shakllanadi.

Prezidentimiz rahbarligida 2026-yil 16-iyulda o‘tkazilgan videoselektor mahallaning subyektlilik maqomini amaliy tartib bilan mustahkamladi. Joriy yilda tumanlarga o‘rtacha 250 milliard, mahallalarga 5,5 milliard so‘mdan resurs berilgani, mahalla byudjetlariga o‘rtacha 150-200 million so‘m tushgani qayd etildi. Davlatimiz rahbarining “yetishmayotgan jihat — mas’uliyat va tashabbuskorlik”, degan xulosasi yangi mezonni belgiladi: rais “yettilik” a’zolarining rejalarni tasdiqlaydi, aniq vazifa qo‘yadi va natijani so‘raydi.

Kambag‘allikni qisqartirish: ro‘yxatdan chiqarish emas, imkoniyatga olib chiqish

Kambag‘allik bilan kurashda eng katta xato — kam ta’minlangan oilani faqat ro‘yxatdagi raqam sifatida ko‘rish. Oilaning daromadi past bo‘lishi ortida ishsizlik, kasbning yo‘qligi,

Kambag‘allikni qisqartirish siyosatida yana bir muhim mezon bor: insonning qadri. Yordam oluvchini doimiy nazorat obyektiga aylantirib qo‘yish mumkin emas. Uning roziligi, shaxsiy ma’lumoti va tanlovi hurmat qilinishi kerak. Ijtimoiy himoya odamni passiv qabul qiluvchi emas, o‘z hayotini o‘zgartirishga qodir subyekt sifatida ko‘rgandagina uzoq muddatli natija beradi.

Obodlik manzarasi

Obodlik haqida gap ketganda, ko‘z oldimizga yangi fasadlar, asfaltlangan ko‘chalar, zamonaviy mahalla binolari keladi. Bular muhim. Ammo obodlikning haqiqiy ma’nosi odamning kundalik mashagqati kamayganida namoyon bo‘ladi. Jo‘mrakdan suv oqsa, bola yaqin maktabga borsa, keksa inson dorixonaga yetib olsa, ayol ishlash uchun uzoq tuman markaziga qatnamasa — mana shu o‘zgarishlar obodlikning tirik mazmunidir.

Obodlikning ta’siri tashqi qiyofadan ko‘ra kundalik turmushda ko‘rinadi: elektr, suv, kutubxona va kasb markazi, xavfsizlik, salomatlik hamda daromadga xizmat qilishi kerak. 2026-yil 16-iyulda “Mahallada obodlik

Raqamlashtirishning qiymati tezlikda emas, adolatda. 184 ta mahallada bir oyda 2 ming arizaning barchasi ijtimoiy reyestrqa kiritish bo‘yicha asossiz rad etilgani, Prezidentga murojaatlar 30 mingdan 46 mingga ko‘paygani qaror ustidan shikoyat kafolati naqadar muhimligini ko‘rsatdi. Avtomatik qaror inson tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi, oflayn xizmat saqlanishi va reyestr haqqoniyligi nazorat qilinishi lozim.

Mahalla raqamli platformasi shaxsiy hayot daxlsizligi masalasini ham kun tartibiga chiqaradi. Oilaning daromadi, sog‘lig‘i, nigronligi, nizosi yoki ijtimoiy holati haqidagi ma’lumotlar xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lishi mumkin, ammo ular ommaviy nazorat vositasiga aylanmasligi kerak. Fuqaro qaysi ma’lumoti saqlanayotganini, undan kim foydalanayotganini va qaror ustidan qayerga shikoyat qilish mumkinligini bilishi lozim.

Raqamli KPI tizimi ham insoniy muloqotni almashirmasligi kerak. Tizimda murojaat yopildi degan belgi ishonch tiklandi, degani emas. Inson bilan yuzma-yuz gaplashish, holatni tushunish, ba’zan bir og‘iz tasalli berish ham ijtimoiy xizmatning bir qismi. Texnologiya boshqaruvni tezlashtiradi, ammo mehr va ishonchni faqat insonning o‘zi yaratadi.

Oila, xotin-qizlar va yoshlar

Mahalla islohotlarini faqat iqtisodiy va infratuzilimaviy raqamlar bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Oiladagi muhit, xotin-qizning mehnatdagi o‘rni, yoshning bo‘sh vaqti va kelajakka ishonchi mahalla barqarorligining eng nozik ko‘rsatkichlaridir. Oilaviy nizo kuchaygan joyda faqat profilaktika bayonnomasi bilan cheklanish yetarli emas: psixologik yordam, huquqiy maslahat, ish va daromad imkoniyati ham kerak.

Xotin-qizlar uchun kasb markazlari va oilaviy nodavlat bog‘chalar bir vaqtda ayolning malakasi va daromadini oshiradi, bolani ta’limga qamrab oladi, oiladagi ijtimoiy bosimni kamaytiradi. Demak, mahalladagi ijtimoiy siyosat imtiyozlar yig‘indisi emas, bandlik, ta’lim, parvarish va huquqiy himoyani birlashtirgan tizim bo‘lishi kerak.

Yoshlar bilan ishlashda ham xuddi shu yondashuv zarur. Sport maydonchasi qurish joyda bir xil natija bermaydi.

Fuqaroning qarordagi o‘rni

Mahallada moliyaviy mustaqillik masalasi kun tartibiga kirgani tasodifiy emas. Fuqaro to‘lagan soliqning bir qismi o‘z ko‘chasiga, o‘z bolasining maktabiga, o‘z hududining obodligiga qaytib kelsa, davlat va jamoa o‘rtasidagi aloqa aniqroq ko‘rinadi. 2021-yildan boshlangan “Tashabbusli budjet” jarayoni odamlarni infratuzilma muammosini faqat shikoyat bilan emas, loyiha va ovoz bilan hal etishga o‘rgatdi.

2026-yilda “Tashabbusli budjet” uchun 7,5 trillion so‘m ajratilganiga qaramay, 2136 ta mahallada birorta loyiha g‘olib bo‘lmadi. Bu fuqarolik safarbarligi va loyiha tayyorlash salohiyatidagi tafovutni ko‘rsatadi. Ovoz berishdan oldin ochiq muhokama, texnik maslahat va ijtimoiy ta’sir bahosi bo‘lsa, ko‘pchilik tanlovi zaif guruhlar ehtiyojini ham qamrab oladi.

2026-yilda mahalla budjetining daromad bazasi kengaydi: soliq ulushlari oshirilib, ayrim jarima va bo‘sh obyektlardan tushmalar mahallada qoldirildi. Natijada tushum joriy yilda 1,6 trillion, kelasi yildan 2 trillion so‘mga yetishi, eng yuqori natija ko‘rsatgan 200 mahallada 2 milliard so‘mdan rag‘bat berilishi kutilmoqda. Moliyaviy mustaqillik tenglashtiruvchi transfert, ochiq budjet va jamoatchilik auditi bilan muvozanatlanishi shart.

Moliyaviy mustaqillikni raisning ixtiyoridagi mablag‘ deb tushunish mumkin emas. Mahalla jamg‘armasi aholining umumiy resursi. Uning daromadi, xarajati, loyihasi va natijasi fuqaroga tushunarli shaklda e’lon qilinishi kerak. Qaysi loyiha nega tanlangani, qancha mablag‘ sarflanganini va obyektidan kim foydalanayotgani ochiq bo‘lsa, mahalla budjeti jamoatchilik ishonchining maktabiga aylanadi.

Qulaylik, tezkorlik va ehtiyohtkorlik

Raqamli texnologiyalar mahalla tizimiga kirib kelayotgani tabiiy jarayon. Yangi platforma murojaatlarni qabul qilish, toifalarga ajratish, mas’ul idoraga yo‘naltirish va ijroni kuzatish imkonini beradi. Sun’iy intellekt yordamida qizil, sarig va yashil darajalarga ajratish rahbarga qaysi muammo kechiktirib bo‘lmazligini ko‘rsatishi mumkin.

Raqamlashtirishning qiymati tezlikda emas, adolatda. 184 ta mahallada bir oyda 2 ming arizaning barchasi ijtimoiy reyestrqa kiritish bo‘yicha asossiz rad etilgani, Prezidentga murojaatlar 30 mingdan 46 mingga ko‘paygani qaror ustidan shikoyat kafolati naqadar muhimligini ko‘rsatdi. Avtomatik qaror inson tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi, oflayn xizmat saqlanishi va reyestr haqqoniyligi nazorat qilinishi lozim.

Mahalla raqamli platformasi shaxsiy hayot daxlsizligi masalasini ham kun tartibiga chiqaradi. Oilaning daromadi, sog‘lig‘i, nigronligi, nizosi yoki ijtimoiy holati haqidagi ma’lumotlar xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lishi mumkin, ammo ular ommaviy nazorat vositasiga aylanmasligi kerak. Fuqaro qaysi ma’lumoti saqlanayotganini, undan kim foydalanayotganini va qaror ustidan qayerga shikoyat qilish mumkinligini bilishi lozim.

Raqamli KPI tizimi ham insoniy muloqotni almashirmasligi kerak. Tizimda murojaat yopildi degan belgi ishonch tiklandi, degani emas. Inson bilan yuzma-yuz gaplashish, holatni tushunish, ba’zan bir og‘iz tasalli berish ham ijtimoiy xizmatning bir qismi. Texnologiya boshqaruvni tezlashtiradi, ammo mehr va ishonchni faqat insonning o‘zi yaratadi.

muhim, lekin uning atrofida kitobxona, kasb kursi, raqamli xizmat va tadbirkorlik imkoniyati bo‘lmasa, yoshlarning bo‘sh vaqti to‘liq mazmun kasb etmaydi. Yoshlar yetakchisi faqat tadbir tashkil qiluvchi emas, mahalladagi yosh avlodning qiziqishi va imkoniyatini iqtisodiy hamda ma’naviy resursga aylantiruvchi shaxs bo‘lishi lozim.

Xotin-qizlar faoli ham faqat ro‘yxat yurituvchi emas. U uyda o‘tirgan ayolning kasbga qiziqishini, oilaviy zo‘ravonlik xavfini, salomatlik va ta’lim ehtiyojini ko‘ra olishi kerak. Buning uchun uning huquqiy va psixologik tayyorgarligi, idoralar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlash imkoni kuchaytirilishi zarur. Mahallaning ijtimoiy qiyofasi uning ijtimoiy ko‘makka muhtoj insonga qanday munosabatda bo‘lishi bilan bilinadi.

Xavfsiz muhit va profilaktika

Mahallada xavfsizlik deganda faqat jinoyat statistikasining pasayishi tushunilmasligi kerak. Xavfsiz muhit yoshning ko‘chada o‘zini erkin his qilishi, ayolning zo‘ravonlikdan himoyalangani, nizo vaqtda murojaat qiladigan joy borligi, internetdagi aldovlardan ogohlik, yo‘l va ko‘cha yoritilishi ta’mirlanganidir.

Profilaktikaga ilmiy metodika, videokuzatuv, yonkamera va raqamli bayonnoma kirib kelmoqda. Kriminogen vaziyati og‘ir 1162 ta mahallaning 571 tasi 2026-yilda jinoyat sodir etilmagani kompleks yondashuv samarasini ko‘rsatdi. Lekin ishsizlik, oilaviy nizo, ta’limdan uzilish va psixologik muammolar “yettilik” hamkorligida bartaraf etilmasa, raqamli nazorat barqaror xavfsizlikka aylanmaydi.

2026-yilda ilk bor jinoyat sodir etgan, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan huquqbuzarlar bilan bog‘liq ayrim holatlarda mahalla kengashining tavsiyasi va jamoaga qayta moslashtirish masalasiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Bu yondashuv jazoni inkor qilmaydi, lekin insonni bir marta xatosi bilan umrbod tang‘alashdan saqlaydi. Mahalla uni nazorat qilish bilan birga, ta’lim, kasb va ishga yo‘naltirishi kerak.

Shu yerda huquqiy kafolat masalasi muhim. Jamoa fikri sud qarorining o‘rmini bosmasligi, mahalla kengashi shaxsni kamstimasligi, profilaktika nomi bilan shaxsiy hayotga asossiz aralashilmasligi shart. Insonni jamiyatga qaytarish — katta mas’uliyat; bu vazifa faqat yaxshi niyat bilan emas, aniq qoida va professional yordam bilan bajariladi.

Har bir hududning drayveri bor

Yangi bosqichda mahalla iqtisodiy rivojlanishning eng kichik, ammo eng ta’sirchan hududiy birligi sifatida ko‘rilmoqda. Buning sababi oddiy: katta tuman yoki shahar statistikasi ortida qaysi ko‘cha, qaysi kasb, qaysi oila va qaysi imkoniyat borligi mahalladan yaxshiroq ko‘rinmaydi. Shuning uchun mahallalarni bir xil loyihaga majburlash emas, ularning tabiiy va inson resurslariga mos ixtisoslashtirish samaralroq.

Mahalla iqtisodiyotida natija kredit miqdori bilan emas, tashabbusning ommalashishi bilan o‘lchanadi. 110 ming mikroloyiha 259 ming kishini ishl qilgan bir paytda 47 mahallada atigi ikkittadan loyiha ishga tushgan. Demak, rais va bankir mahallaning “o‘sish nuqtasi”ni aniqlab, xomashyodan bozorgacha bo‘lgan zanjirni tashkil etishi zarur.

Mahalladagi iqtisodiy drayverni topish uchun faqat yer yoki kreditning o‘zi yetarli emas. Bozor, logistika, suv, elektr, saqlash, qadoqlash, marketing va raqamli savdo zanjiri ham o‘ylanishi kerak. Hunarmandlik mahallasiga sayyorahlik yo‘nalishi, chorvachilik hududiga veterinariya va qayta ishlash, xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan mahallaga zamonaviy infratuzilma zarur.

Banklar bilan hamkorlik kredit tarqatishdan iqtisodiy hamrohlikka o‘tmoqda. Oilaviy tadbirkorlikka qo‘shimcha 2 trillion so‘m ajratilib, “og‘ir” toifali mahallalarda stavka 17,5 foizdan 12 foizga tushirildi, bankarga ko‘pi bilan uchta mahalla biriktirilib, ish o‘rni va daromad bo‘yicha KPI belgilanadi. Ming mahallada “yetishtirish — qayta ishlash — saqlash — qadoqlash — sotish” zanjiri yo‘lga qo‘yilishi kreditni bozor bilan bog‘laydi.

Iqtisodiy faol mahalla bilan imkoniyati cheklangan mahalla o‘rtasidagi farqni kamaytirish esa davlatning vazifasidir. Moliyaviy mustaqillik va mahalliy tashabbus tenglashtiruvchi mexanizmlar bilan qo‘llab-quvvatlamasa, kuchli hudud yanada ilgarilab, zaif hudud ortda qolishi mumkin.

Yangi Sergeli ko‘chasining 2,1 kilometr qismidagi infratuzilma obyektlari to‘liq yangilangach, hududdagi savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari 24/7 rejimida ishlashga o‘tkazilgan.

YANGI O‘ZBEKISTON

BUNYODKORLIK

va RIVOJLANISHDA ILDAMLAYOTGAN

SERGELI

Davlatimiz rahbari joriy yil 4-iyul kuni Sergeli tumaniga tashrifi doirasida hududni barqaror rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish yuzasidan topshiriq va ko‘rsatmalar bergan edi. Ushbu manzilga borib, mazkur vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik.

Dastlab tuman hokimligi binosida butunlay yangicha usul va tartibda ish boshlagan “Smart qabulxona” faoliyati bilan tanishdik. Sun‘iy intellekt texnologiyalariga asoslangan ushbu qabulxona davlat xizmatlarini raqamlashtirish va aholi murojaatlari bilan ishlash sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan.

“Smart qabulxona” — fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish, ularni sun‘iy intellekt yordamida avtomatik tahlil etish hamda mas‘ul xodimlar bilan soniyalar ichida to‘g‘riidan to‘g‘ri (video va ovozi) aloqa o‘rnatish imkonini beruvchi interaktiv platformadir. Mas‘ullarning ta‘kidlashicha, ushbu yangi tizim hokimlik tashkilotlaridagi aholi navbatlarini qisqartirish va murojaatlarni hal etish tezligini bir necha barobar oshirishga xizmat qiladi.

“Uning ishlash tartibi qanday?” degan savol ko‘pchilikka qiziq, albatta. “Aqlli” qabulxonaga murojaat bilan kelgan fuqaro bu yerdagi maxsus interaktiv monitor (terminal)ga yaqinlashishi bilan uni shartli “Madina” ismli virtual yordamchi ovozi salomlashish orqali kutib oladi. Fuqaro o‘zining shaxsini tasdiqlash uchun tizimga JSHSHIR va telefon raqamini kiritadi. Shundan so‘ng murojaatchi o‘zini qiynayotgan muammo yoki taklifini aytadi. Qurilma uning gaplarini matnga aylantiradi va sun‘iy intellekt yordamida soniyalar ichida tahlil qiladi. Boshqacha aytganda, ariza mazmuni o‘rganilib, uni tegishli soha bo‘yicha (masalan, qurilish, ta‘lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, ijtimoiy himoya va h.k.) avtomatik ravishda tasniflaydi.

Keyingi bosqichda murojaat mazmuni va yo‘nalishiga qarab, unga mas‘ul hokimlik xodimlari aniqlanadi. Shundan so‘ng ariza tafsilotlari soha vakili xizmat telegram botiga hamda parallel ravishda (nazorat uchun) hokimlik mas‘ullari telegram guruhiga tekzor xabar yoki bildirishnoma shaklida yuboriladi. Bundan xabardor bo‘lgan mas‘ul xodim telefoni yoki kompyuteri orqali borigina tugmani bosib, hokimlik kutish zalidagi terminalda turgan fuqaro bilan jonli video yoki ovozi aloqa qiladi. Muhimi, masala bartaraf etilgunga qadar nazoratda bo‘ladi.

Mazkur qabulxonaning yana bir afzalligi, har bir murojaat avtomatik tarzda bazaga yoziladi va tuman rahbariyati qaysi sohada muammolar ko‘pligi hamda xodimlarning ish faoliyatini maxsus boshqaruv paneli (Dashboard) orqali kuzatib borish imkoniga ega bo‘ladi.

Ha, bugun raqamlashtirish kirib bormagan soha, tarmoq qolmadi hisob. Hayotimiz unga bog‘lanib, “aqlli” texnologiyalardan keng foydalanish davr talabi bo‘lib bormoqda. Bu yerda ichki ishlar idoralariga murojaat yo‘llash uchun o‘rnatilgan smart-qurilma sohadagi eng so‘nggi yangiliklardan biri bo‘ldi. Ayni shu uskuna orqali Sergeli tumanidan yurtimiz va xorij fuqarolari uch — o‘zbek, rus va ingliz tilida mazkur tuman va Toshkent shahar ichki ishlar boshqarmasi yoki Ichki ishlar vazirligi

navbatchilik qismlariga to‘g‘riidan to‘g‘ri onlayn murojaat yo‘llashi mumkin.

— Qurilmadan foydalanish juda oddiy va oson, — deydi Sergeli tumani ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi xodimi, leytenant Sabina Qahramonova. — Fuqaro dastlab muloqot tilini, keyin esa murojaat yo‘llanadigan ichki ishlar idorasini tanlaydi. Qurilma fuqaro shaxsini aniqlagach, bir oz o‘tib ekranda tanlangan navbatchilik qismi inspektori ko‘rinadi va unga murojaat qilinadi. Xodim masalani bartaraf etishi choralarini ko‘radi. Aytaylik, shikoyat Sergeli tumanidagi birona mahallada sodir bo‘lgan jinoyi ishga doir bo‘lsa, o‘sha hudud ichki ishlari xodimi tekzor xabardor qilinadi. E‘tiborli jihati, bu yerda fuqaro ichki ishlar xodimining ishi va muomala madaniyatini baholash imkoniga ham ega bo‘ladi.

Endilikda Sergeli tumanidagi har bir maktab va sinf bo‘yicha o‘quvchilar davomati, ularning darsdagi ishtiroki va odobi, shuningdek, bu yerdagi mahalla fuqarolar yig‘ini jamoasi faoliyati onlayn kuzatiladi, nazorat qilib boriladi. Bu kabi ishlar esa mazkur hududda yaqinda faoliyat boshlagan Vaziyatlar markazi tomonidan bajariladi. Sergeliga tashrif davomida davlatimiz rahbari ushbu markazda yaratilgan shart-sharoitlar bilan ham tanishib, tegishli ko‘rsatma va topshiriqlar bergan edi.

Sergeli tumani hokimi maslahatchisi Saidahror Yunusovning aytishicha, yangicha uslubda faoliyat olib borayotgan mazkur markaz hududdagi tashkilotlar faoliyatida ilg‘or tajribalarni qo‘llash, sohalarni rivojlantirish, pirovardida yuqori natijalarga erishish, aholiga



“

Ma‘lumotlarga ko‘ra, keyingi o‘n yilda mazkur tumanda 30 ming xonadonli yangi uy-joylar, umumiy maydoni 2 million kvadrat metr bo‘lgan sanoat, savdo va servis obyektlari barpo etilgan. Joriy yilda hududni rivojlantirish uchun byudjetdan 173 milliard so‘m, banklar orqali 2 trillion 200 milliard so‘m ajratilgan.

qulaylik yaratish, yuzaga kelgan muammolarni tekzor aniqlash va yechim topishga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Markaz faoliyatining birinchi yo‘nalishi — “Aqlli tuman” platformasi. U orqali tumanda aholi bilan ishlash yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu yerdagi ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma mavoiy holatni raqamli nazorat qilish, ish jarayonida sun‘iy intellekt dan faol foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. To‘planayotgan ma‘lumotlar asosida xavf-xatarlar oldindan aniqlanayotir. Yana bir jihat, davlat idoralari bilan korxonalar o‘rtasida tekzor aloqa o‘rnatildi.

Ikkinchi yo‘nalish hisoblangan “Xavfsiz tuman” tizimi doirasida Ichki ishlar vazirligining “Qalqon” platformasi va “Mening inspektirim” mobil ilovasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligining “Bali” platformasidan keng foydalanishga kirishilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu markaz faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi tumanda boshqaruv qarorlarining qabul qilish tezligi 35 foiz oshishiga, yo‘l-transport hodisalari 20

foiz kamayishiga, favqulodda vaziyatlarning bartaraf etilishi 25-30 foiz tezlashishiga xizmat qiladi.

Prezidentimiz yo‘l-yo‘lakay yer usti metrosi ostida tashkil etilgan savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari faoliyati bilan ham tanishgan edi. Hokimlik binosidan chiqib, shu yerga bordik.

Bu yerda 137 ta tadbirkorlik subyekti, avtoturargoh, 4 kilometr piyodalar va velosiped yo‘lagi, 2 ta bolalar o‘yingohi va sport maydonchalari tashkil etilgan. Bundan tashqari, metro ostiga o‘rnatilgan yuzta o‘rindiq, sayr qilish maydonlari, do‘konlarga kirish uchun ikki tomonlama yo‘laklar va turli chiroqlar aholining mazmunli hordiq chiqarishi uchun qulayliklar yaratish barobarida ularga ko‘tarinki kayfiyat ulashmoqda.

Mazkur manzilda ko‘nglimiz yayradi: ozodalik, yashillik, gulu gulzorlar. Do‘konlarda salqin ichimliklar, muzqaymoqdan tortib, qahvaning istalgan xiligaicha sotilmoqda. Turli badiiy va ilmiy adabiyotlarga boy kitob do‘koni ishlab turibdi. Uning mutolaa uchun ajratilgan qismida yigit-qizlarni uchratib xursand bo‘ldik.

Ayni maskanda yaqinda ish boshlagan tadbirkor Ahror Qodirov bilan suhbatlashdik.

— Shu paytgacha mahsulotlarimizni sotish uchun joy muammo edi, — deydi u. — Prezidentimizning biz, tadbirkorlarga qaratayotgan alohida e‘tibori tufayli savdo nuqtasiga ega bo‘ldik. Bundan juda mamnunmiz. Hozir bu yerda erkaklar yozgi oyoq kiyimlarini sotaypmiz. Rejalarimiz katta. Ularni amalga oshirishda davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan bu kabi shart-sharoitlar, imkoniyat va imtiyozlar qo‘l kelishi shubhasiz.

Kechki salqin bilan Sergelini kezdik. Ko‘chada hayot qaynayapti. Yangi O‘zbekiston nafasi kirib kelgani shundoq seziladi. Yuqori

texnologiyalarga asoslangan o‘zgarish va yangilanishlardan aql shoshadi, yurak hapriqadi.

Ko‘cha-ko‘yda yurgan odamlarning ko‘zida xotirjamlik. Bu yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikdan, hayotimiz go‘zallashib, farovonlashib borayotganidan, obodlikdan, yaratilgan qulayliklardan, inson qadri ulug‘lanayotganidan, ertangi kunga ishonchdan darak.

O‘ndan ortiq xorijiy davlatda bo‘lib, u yerlardagi shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishganman. Bugun Sergelida yaratilgan imkoniyatlar ularning hech biridan qolishmaydi. Bu barchamizga faxr-iftixor bag‘ishlamoqda.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, keyingi o‘n yilda mazkur tumanda 30 ming xonadonli yangi uy-joylar, umumiy maydoni 2 million kvadrat metr bo‘lgan sanoat, savdo va servis obyektlari barpo etilgan. Joriy yilda hududni rivojlantirish uchun byudjetdan 173 milliard so‘m, banklar orqali 2 trillion 200 milliard so‘m ajratilgan. Aholi uchun beshta yirik dam olish maskani va istirohat bog‘i ishga tushirilgan. Yil oxirigacha 750 million dollar investitsiya jalb etilishi kutilmoqda. Ushbu raqamlar ham ishlar ko‘lami kengligi, bardavomligi, bu yer yanada gullab-yashnashdan so‘zlaydi.

Hududdagi Yangi Sergeli ko‘chasiga yetib borganimizda kun botgandi. Tuman hokimligi vakili Shamshoda Ibragimovanning aytishicha, Yangi Sergeli ko‘chasining 2,1 kilometr qismidagi infratuzilma obyektlari to‘liq yangilangach, hududdagi savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari 24/7 rejimida ishlashga o‘tkazilgan. Bu yerda do‘konlar, nuroniylar maskani bunyod etilgani, bolalar o‘yingohi tashkil qilindi, turli zamonaviy atraksionlar o‘rnatilgani, bir so‘z bilan aytganda, yetti yoshdan yetimish yoshgacha bo‘lgan aholi uchun barcha zarur shart-sharoitlar muhayyo ekanligi barchaga manzur bo‘lmoqda.

— Farzandlarim kun bo‘yi ishta, kechki payt uyda bo‘ladi, — deydi shu ko‘chada yashovchi, 65 yoshni qarshi olayotgan Zamira Xalदारova. — Ular avvallari, charchoqdanmi, ishdan so‘ng shahar markaziga sayrga borishga erinardi. Xonadonimizga yaqinroq hududda tunu kun ishlaydigan joyning o‘zi yo‘q edi. Mana, hududimizda 24/7 rejimida faoliyat yuritadigan ajoyib maskan tashkil etildi. Yashirmayman, bundan farzandlarim, nevaralarim xursand bo‘lganini ko‘rib, quvonchdan ko‘nglim bo‘shagan damlar ham bo‘ldi. Bizga bu kabi qulayliklarni yaratishda bosh-qosh bo‘layotgan davlatimiz rahbariga sergellikl ota-onalar nomidan minnatdorlik bildiraman.

..Oqshom cho‘kdi. Yangi Sergeli ko‘chasi yanada gavjumlashib bormoqda. Bu yerdagi favvoralar, rangli chiroqlar ko‘zni quvnatadi. Dilga xush yovquvchi musiqa ohangidan kayfiyat ruhiyatimizgiz ko‘tariladi. O‘g‘il-qizlarning o‘yin-kulgusini kuzatar ekanman, bolaligim esga tushadi. U paytlari bunday shart-sharoit va imkoniyatlarni hatto orzu ham qilib bo‘lmasdi. Bugun ular haqiqatga aylanganini ko‘ryapmiz.

Ha, keyingi yillarda mamlakatimiz, jumladan, Sergelida ilgari tasavvur ham etib bo‘lmaydigan ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ularning samarasi aholi turmush tarzi va kayfiyatida namoyon bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarda ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Xolmurod SALIMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bu yil ham dehqon va fermerlarimiz uchun ancha barakali keldi. G‘alla xirmonlari to‘lib, hosildorlik yuqori bo‘ldi. Yurtimiz bo‘ylab 1 million gektar sug‘oriladigan hamda 255 ming gektar lalmi yerda ekilgan boshog‘li don ekinlaridan 10 million tonnadan ortiq hosil yig‘ishtirib olindi. Bu mamlakatimiz aholisini un va un mahsulotlari bilan xavfsiz hamda uzluksiz ta‘minlashda ulkan qadam desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bunda qishloq xo‘jaligiga ilm-fanning keng joriy etilishi, g‘alla yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilgan, sohada zamonaviy agrotexnik tadbirlar ichkilik bilan qo‘llanilayotgani, g‘allakorlarimizning fidokorona mehnatlari asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Agrotexnik tadbirlarning optimal muddatlarda sifati bajarilgani ham o‘z natijasini ko‘rsatib, yuqori hosildorlikni ta‘minladi.

Ko‘pchilik yaxshi biladi, bundan o‘n yillar muqaddam g‘alla hosildorligi hozirgidan bir necha barobar past bo‘lgan. Masalan, hozirgidek maydondan 3,5-4 million tonna don yig‘ishtirib olinardi. Qizig‘i, shu hajmdagi mahsulot uchun ham bugungidek xarajat, peshona teri, mashagqatli mehnat sarflanardi. Lekin aksariyat fermerlarning olgan daromadi qilgan xarajatini qoplamagan. Hosildorlik gektariga o‘rtacha 40-45 sentnerligicha qolgan. Hatto ba‘zi fermerlar bundan ortiq hosil olish mumkinligini tasavvur qilolmasdi.

Ammo bugun sohaga ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali hosildorlikni bir necha barobar oshirish mumkinligi yurtimiz tajribasida yaqqol ko‘rindi. Mamlakatimiz g‘allachiligida qo‘lga kiritilgan muhim yutuqlardan biri ham shu — g‘alla hosildorligi o‘rtacha 100 sentnerga yetkazildi. Hozir ko‘plab fermer xo‘jaliklari 100 sentner va undan yuqori hosil olaypti. Ish boshlagandayoq kamida mana shu marrani ko‘zlayaptiki, buning imkoni borligiga amalda guvoh bo‘lmoqda.

Bu yilgi hosilda suvli maydonlardan Xorazm, Jizzax, Sirdaryo va Surxondaryo

Tahlil



GEKTARIDAN 100 SENTNER HOSIL



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH
UCHUN QR-KODNI
SKANER
QILING!



Abdumuxtor ERGASHEV,
Qishloq xo‘jaligi vazirligi
Asosiy ekinlar dehqonchiligi va
agrotexnologiyalarni
rivojlantirish departamenti
boshlig‘i

viloyatlarida 95-100 sentner, Andijon, Toshkent, Farg‘ona va Navoiy viloyatlarida 90-95 sentnerdan don yig‘ishtirib olindi. Amudaryo tumanidagi “Komilov Ravshanbek”, Vobkentdagi “Bekzod Muhammad Bunyod”, Do‘stlikdagi “Akmal Bahrom”, Mingbuloqdagi “Oybek Diyor Tursunboyevlar”, Termizdagi “Dil Ra‘no Yangiariq”, Oqoltindagi “Javohir Shahlo Sherali”, Bog‘otdagi “Abrorbek”, “Xolmurod o‘g‘li Mansur”, Gurlandagi “Ermuhammad Maxsum”, “Inoyat Maxsum” fermer xo‘jaliklari esa g‘alla parvarishida ilg‘or

agrotexnologiyalarni qo‘llagan holda, 100-105 sentnerdan yuqori hosil olishga erishdi. Bunday ulkan natijalar o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilmaydi. Buni nafaqat soha vakillari, balki oddiy odamlar ham yaxshi tushunadi. Yurtodoshlarimiz “Qanday qilib g‘alladan shuncha hosil olinaypti, nega avvallari buning imkoni bo‘lmagan, oxirigi o‘n yilda nima o‘zgardi?” degan savollarni berishi ham ana shunday anglangan tahlillarning natijasi.

Bu savollarning aniq, hayotimizda isbotini topayotgan javoblari bor. Avvala, yurtimiz qishloq xo‘jaligidagi tizimli islohotlar mahsuli bu. Sohaga ilmiy-innovatsion agrotexnologiyalar izchil va keng joriy etilishi, qilingan ishlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, keyingi yillarda yanada takomillashtirib borish tajribasi hosildorlikni karrasiga oshirmoqda.

Joriy yilgi mo‘l hosil ana shu harakatlarning jamlanmasi. Qolaversa, bir qancha omillarni ham alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Masalan, bu yil 170 ming tonna urug‘lik don ekish oldidan 45-60 kun davomida sovitchikli omborlarda (+1, +5C haroratda) saqlandi va 685 ming gektar yerga yarovizatsiya (tindirilgan) qilingan urug‘lik don ekildi. Natijada maysalarning bir tekisda to‘liq unib chiqishi, tuplash, boshog‘lash va pishish davrlarida sodir bo‘ladigan stress omillarga chidamlilik xususiyatlari yaxshilanishi hisobiga nobud bo‘lmasdan, an‘anaviy usulda tayyorlangan urug‘lik donga nisbatan 5-10 kungacha erta pishib yetildi. Mahsuldor poyalar soni bir gektarda o‘rtacha 6-6,5 million donani tashkil etdi. Bu an‘anaviy usulda tayyorlangan urug‘lik donga nisbatan 1,5-2 million dona ko‘p. Natijada har gektarda o‘rtacha 10-12 sentner qo‘shimcha hosildorlik ta‘minlanib, omborlarga ham 700-750 ming tonna qo‘shimcha don kirdi.

Sug‘oriladigan g‘alla maydonlarida 100 sentnerdan hosil yetishtirishga erishish uchun soha mutaxassislari tomonidan agrotexnik tadbirlarga oid 7 ta yangi tavsiyanoma ishlab chiqilib, g‘alla yetishtiruvchi klasterlar va fermer xo‘jaliklari rahbarlariga yetkazildi hamda joylarda dala o‘quv seminarlari tashkil etildi.

G‘alla ekish va parvarishlashning barcha bosqichlarida soha olimlari o‘z tavsiyalari bilan agrotexnik tadbirlarda ishtirok etdi. Bu ham boshog‘li don ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishning muhim omillaridan biri. Ayniqsa, biologik eskirgan navlar o‘rniga har bir hududning tuproq-iqlim sharoitlariga mos, yangi tepzishar, serhosil, ob-havoning noqulay sharoitlari va stress omillarga, kasalliklarga chidamli, donining sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan yangi navlar tanlandi. Dalalarda kuzgi yumshoq bug‘doyning mahalliy “Kesh-2016”, “Asr chilgisi”, “Nodir”, “Turon” hamda xorijiy “Soberbash”, “Temiryaev-150”, “Ultra”, “Aleksheich”, “Vassa”, “Yelanchak” navlari va ularning yuqori avlodli urug‘lari ekilishi don hosildorligini 35-40 foizgacha oshirdi.

Ekish ishlariidan oldin yerlar lazerli tekislagichlar yordamida tekislanib, don urug‘lari zamonaviy resurstejamkor seyyakalarda maqbul muddat va me‘yorlar asosida, fosforli-kaliyli o‘g‘itlar bilan sifatliliklari natijasida sog‘lom maysalar to‘liq undirib olindi. Shuningdek, boshog‘li don ekinlari bahor oylarida azotli mineral o‘g‘itlar bilan 3 marta, mikroelementlarga boyitilgan biostimulyatorlar bilan 3-4 marta barg orqali oshiriltilirdi. Bu ham hosildorlik va don sifatiini oshirishga xizmat qildi.

Kuzgi don ekinlarining o‘sish va rivojlanish davrlarida esa kasalliklar, zararkunandalar hamda begona o‘tlarga qarshi kimyoviy kurashda

ilk bor zamonaviy dron texnologiyalaridan foydalanildi. Natijada boshog‘lash–gullash — sut — mum pishish davrlarida texnika bilan o‘simliklarni payhon qilishning oldi olinib, shtangali purkagichlarga nisbatan xarajatlarda 55-60 foiz kamaydi, preparatlar bilan sifatliliklari berish imkoniyatlari yaratildi. Tahlillarga ko‘ra, g‘alla maydonlarida zang kasalliklari kuzatilmadi. Begona o‘tlar va zararkunandalar (shira, trips, shilimshiq qurt, zararli xasva) ta’sirida yo‘qotiladigan 25-30 foiz don hosili saqlab qolindi.

Keksalarimiz bejiz “Xirmonlarimiz donga to‘lsin”, deb duo qilmaydi. Chunki don mahsulotlari qancha ko‘p bo‘lsa, dasturxonlarimiz shuncha to‘kin, bozorlarimizda mo‘l-ko‘lchilik bo‘ladi. Qolaversa, bugun don mahsulotlarini yetishtirish nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki global oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning muhim omillaridan biri sanaladi.

Yurtimizda hosildorlikning yildan yilga ortib borayotgani zamirida esa g‘alla yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari va klasterlarning o‘mi katta. Ularning shijoati, mehnatiga yarasha imkoniyatlar va iqtisodiy imtiyozlar ham yaratib berilyapti. Jumladan, 2025-yil hosildan boshlab mahsulot yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan imtiyozli kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi amaldagi 12 foizdan 10 foizga tushirildi hamda mazkur mablag‘larni to‘g‘riidan to‘g‘ri fermer xo‘jaliklariga ajratish tartibi joriy etildi.

2026-yil hosildan boshlab esa bug‘doy yetishtirish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlarni joriy yilning 1-avgustiga qadar to‘liq qaytargan qishloq xo‘jaligi korxonalarga ushbu kreditlar bo‘yicha to‘langan foizlarning 4 foiz qismi davlat tomonidan kompensatsiya qilib beriladi. Masalan, Xorazm viloyatida g‘alla yetishtiruvchi

1415 ta fermer xo‘jaligiga ajratilgan 123 milliard so‘m imtiyozli kredit joriy yilning 1-avgustiga qadar to‘liq qaytarilgani uchun olingan kredit mablag‘larining 4 foizi (5 mlrd. so‘m) davlat tomonidan kompensatsiya tarzida qaytarib berildi. Bu esa g‘alla yetishtiruvchi subyektlarning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirib, aylanma mablag‘larini ko‘paytirish barobarida kelasi yil yuqori hosil yetishtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash uchun subsidiyalari ajratilishi natijasida yomg‘irlatib va tomchilatib sug‘orish tizimlari o‘rnatilgan g‘alla maydonlari sezilarli darajada kengaydi. Shu yilning o‘zida g‘alla yetishtiruvchi subyektlar tomonidan 25,7 ming gektar maydonda yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalari joriy etildi. Bundan tashqari, g‘alla maydonlarining 195 ming gektari lazerli uskunalar bilan tekislanib, vegetatsiya davrida g‘alla maydonlari sharbat usulida sug‘orilishi natijasida 2 milliard 500 kub metr suv iqtisod qilindi.

Yuqoridagi amalda oshirilgan agrotexnik tadbirlarni bajarish uchun Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasidan 3,9 trillion so‘m imtiyozli kredit ajratilib, korxonalarga tizimli ravishda yetkazib berildi. Imtiyozli kredit mablag‘lari fermerlarga qo‘shimcha ko‘mak bo‘lyapti. Ammo hosili va daromadi ko‘payishi ortidan kredit mablag‘lariga ehtiyoj sezmayotgan xo‘jaliklar soni ham oshib borayotgani quvonarli. Masalan, joriy yilda 8944 ta fermer xo‘jaligi 204,2 ming gektarda (22 yilgi) imtiyozli kredit olmasdan, o‘z mablag‘i hisobidan g‘alla yetishtirib, 100 sentnerdan yuqori hosil oldi.

O‘rimga avvaldan katta tayyorgarlik ko‘rilgani ham ish sifatiini oshirganini ta‘kidlash joiz. Xususan, g‘alla hosilini qisqa muddatlarda sifatlilik o‘rrib-yig‘ib olish uchun 2415 ta g‘alla o‘rish otryadi tashkil etilib, ularga mavjud 2976 ta yuqori unumli g‘alla o‘rish kombayni, 14 mingtaga yaqin yuk avtomobillari, 2527 ta traktor tirkamasi, 967 ta ko‘chma ustaxona va 1003 ta yonilg‘i quyish shoxboshchasi birkiritildi.

O‘rim-yig‘im mavsumi boshlanishiga qadar esa zamonaviy 180 ta g‘alla o‘rish kombayni joylarga yetkazib berilgan. Natijada hududlarda g‘alla o‘rim-yig‘im mavsumi 20-24 ish kunni tashkil etdi va donning bir misqoli ham yo‘qotilmasdan, o‘z muddatida sifatlilik yig‘ib olindi.



ILMNI HIKMAT, E’TIQODNI AXLOQ, HUQUQNI MAS’ULIYAT BILAN UYG‘UNLASHTIRGAN ALLOMA

Hakim Termiziy tavalludining 1200 yilligiga



Muzaffarxon JONIYEV,
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori



Keyingi yillarda yangi O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash, buyuk allomalarimizning muborak nomlarini ulug‘lash, ular qoldirgan boy ilmiy merosni chuqur tadqiq etish va jahon jamoatchiligiga yetkazishga xizmat qilmoqda. Bu ezgu ishlar o‘tmishni xotirlash bilangina cheklanmay, milliy o‘zlikni anglash, yoshlarni sog‘lom e’tiqod va teran tafakkur ruhida tarbiyalash, ilm-ma’rifatga asoslangan jamiyatni shakllantirishdek ulug‘ maqsadlarga qaratilgan.

Prezidentimizning 2026-yil 24-iyuldagi “Buyuk vatandoshimiz, hadis va tasavvuf ilmining yetuk namoyandasi Hakim Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori ana shu izchil islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Mazkur tarixiy hujjatda Hakim Termiziyning ibratli hayot yo‘li, islomiy tafakkur taraqqiyotiga qo‘shgan munosib hisssasi va boy ilmiy-ma’naviy merosini milliy hamda xalqaro miqyosda chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi.

Ushbu qaror qabul qilinishi arafasida mamlakatimizda yana bir yirik ma’rifiy voqea yuz berdi. 2026-yil 7-11-iyul kunlari Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlarida “Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi: tinchlik, bag‘rikenglik va ilm-ma’rifat yo‘li” tashkil etildi. Forum islom sivilizatsiyasining ilm-fan, madaniyat va ma’naviy taraqqiyotga qo‘shgan hissasini namoyon etish, uning insonparvarlik va ma’rifatparvarlik mohiyatini jahonga yetkazishga qaratildi. Anjumanda dunyoning o‘nlab mamlakatlaridan davlat va jamoat arboblari, vazirlar, muftiyalar, olimlar, tadqiqotchilar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Forumning muhim tarkibiy qismi sifatida Termiz shahrida “Termiz hadis maktabi: allomalar merosi va zamonaviy tadqiqotlar” mavzusidagi IV xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-

kengaytirishga doir muhim takliflar ilgari surildi.

Shu ma’noda, davlatimiz rahbarining Hakim Termiziy tavalludining 1200 yilligini



keng nishonlash to‘g‘risidagi qarori Termizda yangragan ilmiy fikrlar, ma’rifiy tashabbuslar va xalqaro hamkorlik g‘oyalarning amaliy davomi bo‘ldi deyish mumkin.

“

Hakim Termiziy merosining yirik tadqiqotchilaridan Bernd Radtke va Jon O’keyn: “Hakim Termiziy hijriy 205-215, milodiy 820-830-yillar orasida tug‘ilgan”, degan xulosaga kelgan. Shu ilmiy xulosalardan kelib chiqib, 2026-yilda alloma tavalludining 1200 yilligini nishonlash tarixiy va manbashunoslik jihatidan asoslangan muhim qaror hisoblanadi.

tadqiqot markazi va ICESCO hamkorligida tashkil etilgan anjumanda Imom Termiziy, Hakim Termiziy va Termiz hadisshunoslik maktabi namoyandalarning jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo‘shgan hisssasi muhokama qilindi. Konferensiyada Hakim Termiziy merosini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etish, qo‘lyozmalarni o‘rganish va xalqaro akademik hamkorlikni

Musulmon olamining yirik mutafakkiri Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bishr ibn Horun Hakim Termiziy taxminan 820-830-yillar oralig‘ida Termizda tug‘ilgan.

Alloma ilm va ma’rifat muhiti hukmron bo‘lgan oilada voyaga yetgan. Uning otasi musulmon dunyosida tanilgan muhaddislardan bo‘lgan. Onasi va ona tomondan bobosi ham hadis ilmi bilan shug‘ullangan qayd etiladi.

shakllantirdi. U har bir masalaning tashqi ko‘rinishi bilangina cheklanmasdan, uning mohiyati, sababi va hikmatini anglashga intildi. Islom ta’limotidagi hukm va amallarning ichki ma’nolarini nazariy jihatdan sharhlab bergani uchun unga “hakim” — donishmand, hikmat sohibi degan yuksak nom berilgan.

Hakim Termiziy insonni faqat tashqi xatti-harakatlari asosida emas, balki qalbi, niyati, tafakkuri va ruhiy olami bilan yaxlit holda o‘rgangan. Shu jihatdan uning ilmiy merosi islom tafakkurida hikmat, axloq, ruhiyat va ma’rifat masalalarini bir tizimda tadqiq etgan noyob ilmiy maktabdir.

Uning asarlari mavzu va mazmun jihatidan nihoyatda keng qamrovli. Alloma “Bahrut-tafsir” (Tafsir ummoni) asarida aqliy va naqliy tafsir uslublarini uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Qur’on oyatlarini rivoyatlar asosida sharhlash bilan birga ularning ma’nosi, hikmati va inson ma’naviy hayotiga ta’sirini ham ochib bergan.

Hakim Termiziy asarlarining markazida inson turadi. U insonni faqat tashqi xatti-harakatlari bilan emas, balki qalbi, niyati, axloqi va ichki ma’naviy olami bilan bir butun holda tadqiq etadi.

Alloma nazdida ilm insonni manmanlikka emas, kamtarlikka, adovatga emas, mehr-oqibatga, jaholatga emas, hikmat va ma’rifatga yetaklashi kerak. Amalning qadri uning tashqi ko‘rinishi bilangina emas, balki ixlos va ezgu niyat bilan belgilanadi.

Shu ma’noda, Hakim Termiziy merosidagi qalb pokligi, insonparvarlik, halollik va ezgulik g‘oyalari yangi O‘zbekistonda qaror topayotgan “Inson qadri uchun” tamoyili bilan hamohangdir. Jamiyatning ma’naviy yuksalishi, eng avvalo, inson qalbidagi mehr-muruvvat, ahillik, shukronalik va boshqalar taqdiriga daxldorlik tuyg‘ularini shakllantirishdan boshlanadi.

Hakim Termiziyning ilmiy-ma’naviy merosi ana shu fazilatlarini inson hayotining ajralmas qismiga aylantirishga xizmat qiladigan buyuk tarbiya maktabidir. Shu tariqa Hakim Termiziy tafsir, hadis va tasavvuf bilan birga shariat maqsadlari, inson psixologiyasi, axloqshunoslik va bilish nazariyasiga doir qarashlarni ham birinchilardan bo‘lib tizimlashtirgan.

Allomadan 80 ga yaqin asar qolgani qayd etiladi. Ularning katta qismi nashr etilgan bo‘lsa, ayrim nodir qo‘lyozmalari hozirga qadar jahonning turli kutubxona va qo‘lyozma fondlarida saqlanmoqda.

Muhaddis yashagan davrda islom olamida turli falsafiy qarashlar, siyosiy guruhlar va aqidaviy oqimlar o‘rtasida keskin bahslar kechgan. Alloma bunday sharoitda sof islom ta’limotini asrash, diniy manbalarni buzib talqin qilishga qarshi ilmiy asosda javob berishga alohida ahamiyat qaratgan.

U “Ar-Radd al-rofiza” (Rofiziyarga raddiya) kabi maxsus raddiya asarlarini yozgan. “Navodir ul-usul” va boshqa kitoblari esa mo’tazila, xavoriy hamda turli adashgan firqalarning qarashlariga ilmiy munosabat bildirgan. Uning asarlarida ilm va axloq uyg‘unligi, e’tiqodda mo’tadilik ustuvor o‘rin tutadi. Bu esa Movarounnahrda sof islom e’tiqodining saqlanishi va yoyilishiga xizmat qilgan.

Shu nuqtayi nazardan, Hakim Termiziyni islom hikmat nazariyasi ko‘rinishida namoyon bo‘lgan islom falsafasining ilk darg‘alaridan biri deb baholash mumkin. Uning ilmiy uslubida naql va aql, e’tiqod va tafakkur, ilm va ma’naviy tajriba bir-birini to‘ldirib turadi.

Hakim Termiziyning tug‘ilgan va vafot etgan sanalari aniq qayd qilingan ishonchli manba hozirgacha uchramagan. Qator tadqiqotlarda uning 932-yilda vafot etgani ko‘rsatiladi. Tavallud sanasi bo‘yicha esa dunyo olimlarining tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan o‘tkazgan qiyosiy tahlillari alloma 820-830-yillar oralig‘ida tug‘ilganini ko‘rsatadi.

Olim merosining yirik tadqiqotchilaridan Bernd Radtke va Jon O’keyn: “Hakim Termiziy hijriy 205-215, milodiy 820-830-yillar orasida tug‘ilgan”, degan xulosaga kelgan. Shu ilmiy xulosalardan kelib chiqib, 2026-yilda Hakim Termiziy tavalludining 1200 yilligini nishonlash tarixiy va manbashunoslik jihatidan asoslangan muhim qaror hisoblanadi.

Prezidentimiz qarorida nazarda tutilgan vazifalar keng qamrovli bo‘lsa-da, ularning barchasini yagona maqsad — Hakim Termiziy merosini tizimli tadqiq etish, xalqimizga yaqinlashtirish va xalqaro ilmiy muomalaga keng olib kirish g‘oyasi birlashtirib turadi.

Avvalo, 2026-yil noyabr oyida Termiz shahrida “Hakim Termiziy ilmiy-ma’naviy merosining bugungi kundagi ahamiyati” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazilishi belgilandi. Unda alloma merosining hadisshunoslik, tasavvuf, tafsir, axloq, ruhiyat va islom tafakkuri taraqqiyotidagi o‘rni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida muhokama qilinadi.

Qarorning eng muhim yo‘nalishlaridan yana biri — Hakim Termiziyning “Navodir ul-usul” va “Bahrut-tafsir” asarlari hamda alloma merosiga oid boshqa manbalarning o‘zbek va xorijiy tillardagi ilmiy-izohli akademik tarjimalarini tayyorlash va nashr etishdir.

Bu vazifa oddiy tarjimadan ancha keng mazmunga ega. Buning uchun dunyo fondlarida saqlanayotgan qo‘lyozma

“

Hakim Termiziy insonni faqat tashqi xatti-harakatlari asosida emas, balki qalbi, niyati, tafakkuri va ruhiy olami bilan yaxlit holda o‘rgangan. Shu jihatdan uning ilmiy merosi islom tafakkurida hikmat, axloq, ruhiyat va ma’rifat masalalarini bir tizimda tadqiq etgan noyob ilmiy maktabdir.

nusxalarini aniqlash, ularni qiyosiy o‘rganish, ilmiy-tanqidiy matnlarni tayyorlash, murakkab istiloh va tushunchalarni sharhlash talab etiladi. Natijada Hakim Termiziyning asarlari nafaqat mutaxassislarga, balki talabalar, yosh tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasiga ham yetib boradi.

Shuningdek, alloma ilmiy merosiga mansub qo‘lyozmalar, qadimiy kitoblari va boshqa madaniy boyliklarni tadqiq etish, restavratsiya qilish hamda munosib saqlash bo‘yicha vazifalar belgilandi. Fanlar akademiyasi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Madaniy meros agentligining bu yo‘nalishdagi hamkorligi milliy qo‘lyozmashunosligimiz taraqqiyotiga yangi sur’at bag‘ishlaydi.


Hakim Termiziy merosini o‘rganish faqat akademik doiralar vazifasi emas. Unda ilgari surilgan ilm, axloq, qalb pokligi, halollik, sabr, shukronalik va insonparvarlik g‘oyalari yosh avlod tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega.

Qarorda termiziy allomalarning bag‘rikenglik, insonparvarlik va ma’naviy poklikka doir g‘oyalarni o‘rganish va ommalashtirish, termiziyshunoslikka oid tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat ijtimoiy buyurtmalarini e’lon qilib borish tavsiya etildi.

Diniy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Hakim Termiziy asarlari bilimdoni” tanlovini o‘tkazish belgilangani ham alohida ahamiyatga ega. Bu tanlov yoshlarni alloma asarlarini bevosita mutolaa qilish, ulardagi g‘oyalarni anglash va zamonaviy hayot bilan bog‘lab tahlil etishga undaydi.

Bugungi murakkab axborot muhitida yoshlar ajdodlarimizning sof ilmiy merosini qanchalik puxta bilsa, diniy tushunchalarni buzib talqin qiluvchi soxta da’vatlar va yot g‘oyalarga qarshi shunchalik mustahkam ma’naviy immunitetga ega bo‘ladi.

Qarorda Hakim Termiziy yodgorlik majmuasi va unga tutash hududlarni obodonlashtirish, uni zamonaviy ma’rifat va ziyorat maskaniga aylantirish vazifasi ham belgilandi.



Bu yondashuv tarixiy obidani ta’mlash bilangina cheklanmaydi. Majmuada allomaning hayoti va ilmiy merosini aks ettiruvchi zamonaviy ekspozitsiyalar, raqamli axborot tizimlari, turli tillardagi audio va videomateriallar, elektron kutubxona hamda interaktiv ta’lim vositalarini joriy etish imkonini beradi.

Natijada Hakim Termiziy majmuasi tabarruk ziyoratgoh bo‘lish bilan birga mahalliy va xorijiy sayyohlar, olimlar, talabalar va yoshlar uchun xalqaro ilmiy-ma’rifiy markazga aylanadi. Bu esa Termizni jahon islom sivilizatsiyasining qadimiy ilm markazlaridan biri sifatida keng targ‘ib etishga xizmat qiladi.

Qarorda “Termiziy hikmatlari” ru kni ostida ko‘rsatuvlar, eshittirishlar va infografikalar tayyorlash, alloma tavalludining 1200 yilligiga bag‘ishlangan esdalik buyumlar, pochta markalari va taqvimlar yaratish ham nazarda tutilgan. Hakim Termiziy xotirasiga bag‘ishlangan xalqaro kurash turnirini “Mardlar maydoni” shiori ostida yuqori saviyada o‘tkazish va uning xalqaro brendini shakllantirish ham ma’naviy meros bilan milliy sportni uyg‘unlashtiradi.


So‘nggi yillarda O‘zbekiston buyuk allomalar merosini xalqaro maydonlarda taqdim etish orqali o‘ziga xos ma’rifiy diplomatiyani amalga oshirmoqda. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy va Hakim Termiziy asarlaridagi tinchlik, adolat, bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalari nafaqat musulmon olami, balki butun insoniyat uchun umumiy ma’naviy boylikdir.

Ta’kidlaganimizdek, yaqinda o‘tkazilgan Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi ham O‘zbekistonning ana shu ma’naviy-ilmiy missiyasini yaqqol namoyon etdi. Forum ishtirokchilari mamlakatimizning islom ilm-fani, madaniyati va ma’rifatining qadimiy beshiklaridan biri sifatida gumanitar hamkorlik va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotdagi mavqe’i mustahkamlab borayotganini e’tirof etdi.

Hakim Termiziy tavalludining 1200-yilligini xalqaro miqyosda nishonlash esa bu jarayonning navbatidagi muhim bosqichi bo‘ladi. Alloma merosidagi qalb pokligi, ilm va amal uyg‘unligi, insonparvarlik, mo’tadilik va ma’naviy mas’uliyat g‘oyalari O‘zbekistonning jahonga yo‘llayotgan ma’rifat da’vati bilan hamohangdir.

Muhaddisning ilmiy-ma’naviy merosi tarix sahifalarida qolib ketgan nodir yodgorlik emas. U har bir davrda insonni o‘z qalbiga nazar solishga, ilmni hikmat, e’tiqodni axloq, huquqni mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirishga chaqiruvchi hayotbaxsh manbadir.

Prezidentimizning ushbu qarori alloma tavalludining 1200 yilligini nishonlash bilan birga termiziyshunoslikning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi. Asarlarning akademik nashrlari,



qo‘lyozmalarning tadqiq va restavratsiya qilinishi, xalqaro konferensiyalar, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash, ziyoratgohni zamonaviy ma’rifat maskaniga aylantirish kabi vazifalar bir-birini to‘ldiruvchi yagona ilmiy-ma’rifiy dasturni tashkil etadi.

Buyuk allomaning 1200 yillik yubileyini keng nishonlash Termiz zaminining jahon ilm-fani va islom sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini yana bir bor namoyon etadi. Eng muhimi, bu tarixiy qaror xalqimizni Hakim Termiziy qoldirgan hikmat va ma’rifat ziyosidan yanada keng bahramand etib, kelajak avlodlarni buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lib yashashga undaydi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo’limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cafr: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-qaror bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
29609 nusxada bosilgan.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy